

LANGUAGE & CULTURE

ISSN 2181-922X

# O'ZBEKISTON: TIL VA MADANIYAT

UZBEKISTAN

## Adabiyotshunoslik

2023 Vol. 2 (2)

[www.literature.tsuull.uz](http://www.literature.tsuull.uz)

ISSN 2181-922X

# O'ZBEKISTON:

TIL VA MADANIYAT

ADABIYOTSHUNOSLIK

2023 Vol. 2(2)

[www.literature.tsuull.uz](http://www.literature.tsuull.uz)

Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o'zbek tili va adabiyoti universiteti

**Bosh muharrir:** Shuhrat Sirojiddinov  
**Bosh muharrir o'rinbosarlari:** Nurboy Jabborov  
Bahodir Karimov  
**Mas'ul kotib:** Sohiba Madirimova

#### **Tahrir kengashi**

Nusratulla Jumaxo'ja, Iqboloy Adizova, Abdulla Ulug'ov, Dilnavoz Yusupova, Islom Yoqubov, Qo'ldosh Pardayev, Umida Rasulova, Akrom Dehqonov, Olim To'laboyev, Tozagul Matyoqubova, Abdumurod Tilavov, Nodir Jo'raqo'ziyev, Shahlo Hojiyeva, Orzigul Hamroyeva, Ilyos Ismoilov, Ilhom Sayitqulov, Oybachin Abdulhakimova, Sohiba Umarova, Ruxsora To'laboyeva, Yulduz Muhamadiyeva, Gulrux Xudoyorova, Yulduz Abdulhakimova, Gulzoda Soatova, Dildora Rahmonova, Furqat To'xtamurodov.

#### **Jurnal haqida ma'lumot**

**"Adabiyotshunoslik"** - "O'zbekiston: til va madaniyat" jurnalining adabiyotshunoslik yo'nalishidagi seriyasi bo'lib, yilda ikki marta nashr etiladi.

Jurnalning **"Adabiyotshunoslik"** seriyasida o'zbek va jahon adabiyoti tarixi, xalq og'zaki ijodi, adabiyot nazariyasi, o'zbek mumtoz adabiyotining qo'lyozma manbalari va matnshunoslik muammolari, jadidchilik va jadid adabiyoti, zamonaviy adabiy jarayon, adabiy tanqid hamda qiyosiy adabiyotshunoslik yo'nalishidagi eng yangi tadqiqotlar e'lon qilinadi. O'zbek va jahon adabiyotshunosligi erishgan so'nggi yutuqlari aks etgan ilmiy maqolalarni nashr etishga alohida diqqat qaratiladi. Maqolalarning ilmiy saviyasi va tahliliy quvvati yuqori bo'lishiga e'tibor beriladi.

**"Adabiyotshunoslik"** seriyasida O'zbekiston va xorijiy davlatlarning e'tirof etilgan atoqli olimlari, oliy o'quv yurtlari professor-o'qituvchilari, doktorantlar, mustaqil izlanuvchilar hamda magistrantlarning ilmiy maqolalari nashr etiladi.

**"Adabiyotshunoslik"** seriyasi 2022-yil yanvar oyidan chiqq boshlagan.

Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o'zbek tili va adabiyoti universiteti.

O'zbekiston, Toshkent, Yakkasaroy tumani, Yusuf Xos Hojib ko'chasi, 103.

**Email:** [adabiyotshunoslik2022@gmail.com](mailto:adabiyotshunoslik2022@gmail.com)

**Website:** [www.uzlc.navoiy-uni.uz](http://www.uzlc.navoiy-uni.uz)

[www.literature.tsuull.uz](http://www.literature.tsuull.uz)

## MUNDARIJA

### **Abdulla Ulug'ov**

Xayriddin Sulton asarlarida hayot hodisalarining aks ettirilishi.....4

### **Oybarchin Abdulhakimova**

Shoir, she'r va so'z uchligining badiiy-estetik, liro-publitsistik talqinlari (Abdulla Oripov ijodi misolida).....25

### **Fanuza Adilova**

Xayriddin Sulton qissalarida milliy ruh va obrazlar poetikasi ("Ajoyib kunlarning birida" qissasi asosida).....37

### **Oybek Boyatov**

Mazjub Namangoniy asarlarining janr xususiyatlari.....47

### **Gavharoy Murodova**

"Majolis un-nafois"ning yettinchi majlisida zikr etilgan devon sohiblari.....63

### **Xidirova Farangiz**

Usmon Nosir ijodining o'rganilishi.....85

### **Ilhom Sayitqulov**

"Temurnoma"dagi obrazlar tavsifi va evolyutsiyasi.....98

### **Umarjon Qodirov**

"Alpomish" dostonining o'rganilishi.....117

Ulug'ov,  
Abdulla,  
Murodova,  
Fanuza,  
Oybek,  
Boyatov,  
Gavharoy,  
Murodova,  
Xidirova,  
Farangiz,  
Ilhom,  
Sayitqulov,  
Umarjon,  
Qodirov,  
chiqa

rsiteti.  
103.

## Xayriddin Sulton asarlarida hayot hodisalarining aks ettirilishi

Abdulla Ulug'ov<sup>1</sup>

### Abstrakt

Mazur maqolada zamonaviy o'zbek adabiyoti yirik namoyandalaridan biri Xayriddin Sultonov hikoya va qissalarida hayot hodisalarini qay tarzda badiiy aks ettirilishi to'g'risida mulohaza yuritiladi. Adib asarlarida hayot voqeligi, tarixiy haqiqat, insonning murakkab ichki kechinmalari ta'sirchan tarzda badiiy aks ettirilishi, voqelikka yuksak insonparvarlik nuqtayi nazaridan qaralishi to'g'risida fikr bildiriladi.

Yozuvchining "Dunyoning siri", "G'ulomgardish", "Qog'oz gullar" kabi hikoyalari hamda "Saodat sohili", "Yozning yolg'iz yodgori", "Ko'ngil ozodadur..." qissalarida kishilarning kundalik hayoti, tashvishi, intilishlari, o'zaro munosabatlari haqqoniy yoritilishiga e'tibor qaratiladi. Yozuvchi qissa, hikoyalarida insonning ruhiy kechinmalari ishonarli ochib berilishi diqqat markaziga qo'yiladi. Yozuvchining qissa, hikoyalarida qalamga olingan voqealar hayotdagi hodisalarga o'xshaydi. Ulardagi qahramonlar xuddi hayotdagi odamlar kabi ko'rinadi. Bu qahramonlarning o'y-kechinmalari, dard-tashvishlari hech kimni befarq qoldirmaydi. Maqolada adib ijodiga xos shu kabi xususiyatlar qayd etiladi.

**Kalit so'zlar:** *Xayriddin Sultonov, Bobur, qissa, tarixiy mavzu, zamonaviy hayot, tarixiy shaxs obrazi, realistik tasvir, lirik ifoda, syujet, xarakter, ichki kechinma, ta'sirchan yechim.*

### Kirish

Xayriddin Sultonov asarlari zamonaviy o'zbek adabiyotida alohida o'rin tutadi. Adibning "Boburiynoma", "Boburning tushlari", "Umr esa o'tmoqda", "Onamning yurti", "Bir oqshom ertagi" kabi kitoblaridagi hikoya, qissa, esselari o'quvchilar e'tiborini qozongan. Adabiyotshunos Umarali Normatov yozuvchi Xayriddin Sultonov ijodi haqida mulohaza yuritar ekan: "Dunyoning siri", "G'ulomgardish", "Qog'oz gullar", "Saodat sohili", "Yozning yolg'iz yodgori",

<sup>1</sup>Ulug'ov Abdulla O'zbekovich – filologiya fanlari nomzodi, professor, Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o'zbek tili va adabiyoti universiteti.

**E-mail:** aulugov@navoiy-uni.uz; ulugovabdulla05121960@gmail.com

**ORCID ID:** 0000-0002-7013-400X

**Iqtibos uchun:** Ulug'ov, A. 2023. "Xayriddin Sulton asarlarida hayot hodisalarining aks ettirilishi". *O'zbekiston: til va madaniyat. Adabiyotshunoslik* 2(2): 4-24.

“Ko’ngil ozodadur...” kabi qissa, hikoyalari; “Andisha”, “Shoirona, darveshona bir ma’no”, “Boburning tushlari” singari badialari o’tgan asr oxirgi choragi milliy adabiyotimiz taraqqiyotida munosib o’rin egallaydi. Bu asarlar shaxs jumbog’i, inson ruhiyatidagi sirli-sehrli xususiyat, holatlarni alohida bir nazokat bilan teran anglash hamda nafasat tuyg’usiga yo’g’rilgan holda ifoda etish san’ati bilan milliy nasrimizda o’ziga xos hodisaga aylandi” deydi [2006, 20-yanvar].

Xayriddin Sultonov 1956-yilda Toshkent viloyati Qibray tumanidagi Tuzel qishlog’ida tug’ilgan. Parkent qishlog’idagi o’rta maktabda o’qigan. Toshkent Davlat universiteti jurnalistika fakul-tetida tahsil olgan. “Guliston”, “Yoshlik” jurnallarida, G’afur G’ulom nomidagi Adabiyot va san’at nashriyotida ishlagan. Ayni paytda O’zbekiston Respublikasi Prezidenti Davlat maslahatchisi.

### **Asosiy qism**

Adibning ilk hikoyalari talabalik yillarida matbuotda bosilib chiqqan. “Toshkent oqshomi” gazetasida e’lon qilingan “Mirka-rim chol” hikoyasini yozuvchi o’zining matbuotda e’lon qilingan birinchi asari hisoblaydi.

Yozuvchining qissa, hikoyalarida qalamga olingan voqealar hayotdagi hodisalarga o’xshaydi. Ulardagi qahramonlar xuddi hayotdagi odamlar kabi ko’rinadi. Bu qahramonlarning o’y-kechin-malari, dard-tashvishlari hech kimni befarq qoldirmaydi.

Xayriddin Sultonov asarlarida hayotdagi oddiy hodisalar qa-lamga olinadi. Kishilarning kundalik hayoti, tashvishi, intilishlari, o’zaro munosabatlari haqida hikoya qilinadi. Yozuvchi qissa, hikoya-lari uchun, asosan, oddiy odamlarni qahramon qilib oladi. Ularning ruhiy kechinmalarini ishonarli va ta’sirchan gavdalantiradi. “Chol-lar palatasi” hikoyasida kuz manzarasini yozuvchi bunday tasvir-laydi: “Yonbosh qishloqqa kuz erta tushdi. Kechagi yashilligidan ayrilgan za’faron barglar mungli shivirlab, so’ngsiz hasratini ifoda qilmoqchiday qo’nimsiz tentiraydi. Achchiq izg’irin allaqayerdan qor sharpasini haydab keldi, g’ofil kimsalarni qilichini ko’tarib qish kelayotganidan ogoh etgan kabi birdan qora sovuq tushdi. Odamlar o’tin-ko’mir, issiq kiyim ilinjida yugurib qolishdi, allanechuk yuvosh tortgan nozik-nihol kishilarning tashvishi kuchaydi: seryog’in, nam-chil havo ko’p dardlarni yangilab yubordi” [Sultonov, 1983, 38].

Yozuvchi qahramonlari harakat-holatini ularni qurshab tur-gan tabiatdagi o’zgarishlar bilan bog’liq holda tasvirlaydi. “Nomus” hikoyasidagi mana bunday o’rinlar e’tiborni tortadi: “Kun peshin-

dan oqqan, quyoshning zabti pasaygan edi. Tuya o'rkachiga o'xshash suyri adirlar etagiga to'shalgan soyalar tobora uzaya boshladi. Chol hamon surgalib yurar, sochilgan o'tlarni sabr-toqat bilan bir joyga yig'ar, bog'lar va o'zini, xuddi shu ishlarni qilmasa, qolgan besh kunlik umrida muhim bir narsa yetishmaydigandek hls qilar edi. Qosh qorayib, horg'in quyosh ufqning bag'rini dog'lagan cha bepayon zamin-u bo'ysunmas odamlarga mayus termulgan cha ko'yi botib borarkan, tishlari mahkam qisilgan, o'zi singari qadimiy dallasida hanuz kuymanib yurgan jonsarak bir cholga qarab bosh chayqadi" [Sultonov, 1980, 27].

Xayriddin Sultonov hikoyalarida qisqa vaqt oralig'ida ro'y bergan voqea-hodisalarni shu tarzda jonli gavdalantiradi. Qissalarida esa hikoyalaridagiga nisbatan kengroq voqealarni, bir necha qahramon o'rtasidagi munosabatlar murakkabligini ishonarli ko'rsatadi.

Yozuvchining shu paytgacha o'nlab ajoyib hikoyalari va "Saodat sohili", "Yozning yolg'iz yodgori", "Ko'ngil ozodadur..." qissalari e'lon qilindi. Ushbu qissalar ham qahramonlar xarakterini, ruhiy kechinmalarini nozik tasvir etib ko'rsatishi bilan diqqatini tortadi.

Insoniyat tarixida Bobur singari qismati murakkab ulug' shaxslar juda ko'p emas. Bobur ulug' shoh va nozik didli shoirdir. U saltanat barpo etgan. Fan, madaniyat, san'at rivoji uchun ulkan hissa qo'shgan. Bobur o'z hayot yo'li, tanigan-bilgan odamlarining fe'l-atvori to'g'risida haqiqatni yozib qoldirgan ulkan adibdir. Husayn Boyqaro, Shayboniyxon, Umarshayx Mirzo, Alisher Navoiy singari tarixiy shaxslar to'g'risidagi eng to'g'ri tavsiflar "Boburnoma" da bayon qilingan. Bobur o'z xatolari to'g'risida ham, boshqalarning ayb-u nuqsonlari xususida ham fikrini aniq aytgan. "Boburnoma" temuriylar davri to'g'risida asl haqiqatni ko'rsatuvchi eng noyob manba sanaladi. Zahiriddin Muhammad Boburning qo'li bilan bitilgan ushbu noyob asar o'ziga xos qomus bo'lib, unda nafaqat tarixiy voqealar, balki turli o'lkalarning jo'g'rofiy o'rni, iqlimi, o'simlik va hayvonot dunyosi, odamlarining turmush tarzi, fe'l-atvori to'g'risida ham qimmatli ma'lumotlar keltirilgan.

Bobur o'n ikki yoshida podshoh bo'lgan. "Samarqandni ikkinchi marta qo'lga kiritganimda Navoiy tirik edi. Undan menga bir maktub ham kelgan edi" deb yozadi "Boburnoma" da. Boburning o'sha davrda arab yozuviga o'zgartirish kiritishga jur'at etishi beqiyos jasorat edi. Ulug' shoh va nozikta'b shoir Boburni shu boisdan Javoharla'l Neru "dilbar shaxs... Uyg'onish davrining tipik hukmdori,

mard va  
"Bobur fe  
degan.

Bu

Bobur to  
mavjud. (o  
bir qator  
romani u  
deb nom  
yoritilgan  
qahramon

Xay

asarlari a  
Normatov  
nalarining  
langan qis  
ning tug'i  
botgan pa  
lari", "Nuq  
da e'lon et  
ayrimlar"

"Saodat sol  
dasturi, da

Xay

paydo bo'l  
bor bu nu  
qishloq ma  
devoriga os  
ila boqib t  
fat insonni  
o'rnashdik,  
chehrasida  
mujassam i  
balolig' bo'l  
sori yuzlana  
da, hazin m  
ko'cha-ko'yd  
ma'yus ma'n  
yig'lagim, uz  
da Bobur Mi  
tengsiz shax

mard va tadbirkor hukmdori” deb ta’riflagan. Eduard Xolden esa: “Bobur fe’l-sajiyasiga ko’ra Sezarga qaraganda sevishga arzigulikdir” degan.

Bu ta’riflar Boburning buyuk shaxs bo’lganini bildiradi. Bobur to’g’risida xorijlik qalamkashlarning ham talaygina asarlari mavjud. O’zbek adabiyotida ham Bobur hayot yo’li hikoya qilingan bir qator asarlar yozilgan. Pirimqul Qodirovning “Yulduzli tunlar” romani ular orasida alohida ajralib turadi. Ushbu roman “Bobur” deb nomlanadi. “Yulduzli tunlar”da Boburning hayot yo’li keng yoritilgan. Unda tarixiy shaxslar obrazi bilan bir qatorda, to’qima qahramonlar obrazi ham ishonarli gavalantirilgan.

Xayriddin Sultonov ijodida ham uning Boburga bag’ishlangan asarlari alohida o’rin tutadi. Bu xususda adabiyotshunos Umarali Normatov shunday deydi: “Yozuvchining chorak asrlik ijodi namunalarining teng yarmini Bobur shaxsiyati, hayoti, ijodiga bag’ishlangan qissa, hikoya, badiia, suhbat, ocherklar tashkil etadi. “Yo’lbarsning tug’ilishi” nomli ilk kinohikoyasini mustasno etganda, “Oy botgan pallada”, “Saodat sohili”, “Panoh”, “Tavba”, “Boburning tushlari”, “Nuqta” kabi Bobur mavzuidagi asarlari o’z vaqtida matbuotda e’lon etilgan, ular adabiy jamoatchilik orasida qiziqish uyg’otgan, ayrimlar” tevaragida qizg’in bahs-munozaralar ham bo’lib o’tgan. “Saodat sohili” qissasi esa, mana, o’n besh yildirki, maktab adabiyoti dasturi, darsligidan muhim o’rin olib keladi” [2006, 20-yanvar].

Xayriddin Sultonov Boburning hayoti va ijodiga qiziqish paydo bo’lishi haqida bunday deydi: “O’n to’rt yoshlarimda ilk bor bu nuroniy siymoning tasviri chekilgan suvratni ko’rdim. O’lis qishloq maktabi, qahraton qishning dilgir kunlari, adabiyot xonasi devoriga osilgan muhtasham portret va undan muloyim tabassum ila boqib turgan, shohona sallasiga ukpar jig’a qadalgan ulug’sifat insonning bori-borlig’i murg’ak tasavvurimga shu qadar teran o’rnashdik, dars paytida ham, tanaffus chog’lari ham uning mardona chehrasidan ko’z uzolmas edim. Bu nurli qiyofa mujassam shijoat, mujassam iztirob bo’lib tuyular, suvrat ostidagi “*Tole’ yo’qi jonimg’a balolig’ bo’ldi, Har ishniki ayladim xatolig’ bo’ldi, O’z yerni qo’yib Hind sori yuzlandim, Yo Rab, netayin, ne yuz qarolig’ bo’ldi*” degan sodda, hazin misralar bir o’qishdayoq yod bo’lib ketgan, shu satrlarni ko’cha-ko’yda ham, dala-dashtda ham takrorlab yurar edim. Ularning ma’yus ma’nosi, shikasta ohangi dilimga qattiq ta’sir qilar, o’z-o’zidan yig’lagim, uzoq bir joylarga bosh olib ketgim kelar edi. Shu yo’sinda Bobur Mirzoning mardlik va muruvvatda, zakovat va matonatda tengsiz shaxsiyatiga maftun bo’lib qoldim. Men uni otamday, onam-

day, farzandimday yaxshi ko'rib qoldim" [Sultonov 1997, 5].

Bobur shaxsiga shu tarzda maftun bo'lib qolgan Xayriddin Sultonov dastlab u haqda "Yo'lbarsning tug'ilishi" nomli kinohikoya, undan keyin esa "Oy botgan pallada" hikoyasini yozdi. Bu asarlarning asosiy qahramoni sifatida Boburni ko'rsatdi. Xayriddin Sultonovning Boburning shoh va shoir sifatidagi murakkab siymosini gavdalandirish yo'lidagi dadil intilishi "Saodat sohili" qissasida, ayniqsa, yorqin ko'rindi. 1981-yilda "Yoshlik" jurnalining dastlabki sonida bosilib chiqqan ushbu qissa "Usta Binoqul, qani turing, shom tushmay, huv dovonga yetib olaylik! O'sha dovonga yetaylik, u yog'i-yo Razzoq!" deb boshlanadi [Sultonov 1983, 159].

"Saodat sohili" - Xayriddin Sultonovning birinchi yirik asari. Bu qissa jozibador badiiy tilda yozilgan, qahramonlar holati, ichki kechinmasini ta'sirchan gavdalandirgani bois darhol o'quvchilar e'tiborini tortdi. Ushbu qissa tili tarixiy mavzudagi eng yaxshi asarlarga xos jihatlar yorqin aks etgan. Unda tarixiy muhit, voqealar kechayotgan manzil-makonlar manzarasi jozibador tasvirlangan. Qahramonlarning dialog, monologlarida ham tarix nafasi yaqqol seziladi. Qissa Hindistonga, Bobur huzuriga borish maqsadida yo'lga chiqqan Hofiz Ko'ykiy va usta Binoqulning boshidan kechirganlari tasviri bilan boshlanadi. Binoqul Bobur bilan birga Hindistonga kelgan otasini daraklab, Hofiz Ko'ykiy bilan birga yo'lga chiqadi. Ammo yo'lda ular ketayotgan karvonni qaroqchilar talaydi. Qochayotib Binoqul oyog'i toyganidan tog' unguridagi chuqurlikka yiqilib tushadi. Umurtqasi qattiq shikastlanganidan yo'l yurolmay halok bo'ladi. U o'limidan oldin Hofiz Ko'ykiyga: "Armonim ichimda qoldi, taqsir. Padarimning daragini bilsam edi. Bobur shohni bir ko'rsam... Taqsir, mana shu kitobni men unga ixlos bilan tortiq etmoqchi edim. O'zim kitobat qilib edim. Bilmaysiz, taqsir, o'zim ham bilmayman, lekin nechundir xudo mening mehrimni ul zotga tushirgan. So'nggi tilagim ham, vasiyatim ham shu: bu kitobni Bobur hazratlariga eltib, duoi salomimni yetkaz gaysiz" deydi [Sultonov 1983, 163].

Qissada Hofiz Ko'ykiyning Hind diyoriga borib, Bobur shoh bilan uchrashib, shogirdi usta Binoqulning vasiyatini amalga oshirgani ta'sirchan hikoya qilinadi. Hofiz Ko'ykiy ilm o'rganishga umrini bag'ishlagan, bu yo'lda cheksiz mashaqqatlar tortgan mutafakkir zotlarning mujassam siymosi sifatida taassurot uyg'otadi. Hofiz Ko'ykiy qissada dunyoning qariyb yarmini kezgan jahongashta odam, hayotning qadrini, tiriklikning nechog'li ulug' ne'mat ekanini teran anglagan, so'qqabosh, vorasta - ozod, erkin odam deb ta'riflanadi. Boshidan kechirganlari-yu kechinmalari haqiqatan uning

Xayriddin  
shunday  
X  
Binoqul  
ta'rif qu  
umri mu  
nishon k  
mutolaac  
qul bu b  
ustozinin  
igiga Tos  
hashama  
salobiy sa  
yorat qili  
Bu  
Shuning u  
fuqarolar  
tinib, bir g  
o'lkasiga s  
di. Oddiy,  
maydi. Oyo  
Hof  
ga sazovo  
ochib ber  
Baxshiturk  
komil zot e  
digan Baxs  
ammo shal  
sob-kitobla  
g'oyat taajji  
Shu  
allomalarda  
voqealar qi  
muhtasham  
di ko'rinib t  
asl afg'on y  
riga ko'ra d  
Yo'g'on gavn  
Mavlono Fir  
eshitganingi  
Abdul  
o'rnidan qo'z

shunday zot bo'lganligi haqida tasavvur uyg'otadi.

Xayriddin Sultonov Hofiz Ko'ykiy xarakterini dastlab Binoqulning ustozini to'g'risidagi mulohazalari orqali ta'riflanadi. Bu ta'rif quyidagicha: "Ustozini so'qqabosh, vorasta ko'ngil odam bo'lib, umri muttasil safarlarda o'tardi. U ba'zan ikki-uch yillab benom-u nishon ketar, safardan qaytgach, masjid xonaqosiga tutash hujrasida mutolaadan bosh ko'tarmay, allanarsalar yozgani yozgan edi. Binoqul bu bitiklarning nimaligini bilmas, so'ragani botinolmas, ammo ustozining yosh bo'lsa-da, ulug' odam ekanini sezardi: masjid eshigiga Toshkand, Samarqand va boshqa shahr-u kentlardan otliqlar, hashamatli soyabon aravalar tez-tez kelib turar – zarbof to'n kiyib, salobiy salla o'ragan turli-tuman basavlat kishilar Hofiz Ko'ykiyning ziyorat qilib chiqar edilar".

Bundan ma'lum bo'ladiki, Hofiz Ko'ykiy – donishmand zot. Shuning uchun uni turli shahar, qishloqlardan amaldorlar-u oddiy fuqarolar ziyorat qilgani kelishadi. Usta Binoqul singari kishilar botinib, bir gap so'rolmaydi. Usta Binoqul ustoziga o'zi bilan birga Hind o'lkasiga safarga birga olib ketishni uning oyog'iga bosh urib so'raydi. Oddiy, bechora kishilar ham har kimning oyog'iga bosh uravermaydi. Oyog'iga bosh urish ehtirom, hurmat, iltijoni bildiradi.

Hofiz Ko'ykiy odamlarning ana shunday hurmat, ehtiromiga sazovor siymo ekanligi syujet voqealari davomida asta-sekin ochib beriladi. U Agra shahri bozori yaqinidagi karvonsaroyda Baxshiturkka duch kelganida, uning devona emas, Haqqa yetgan komil zot ekanini payqaydi. Hamma bir devona deb beparvo qaraydigan Baxshiturkning "poyintar-soyintar so'zlari zamiridagi oddiy, ammo shafqatsiz haqiqatdan benihoya hayratga tushadi. Uning hisob-kitoblarini xayolan tekshirib ko'rar ekan, bu qadar aniqligidan g'oyat taajjublanadi".

Shu voqealar bayonidan keyin Hofiz Ko'ykiyning mashhur allomalardan ekani Bobur saroyidagi voqealarda ko'rsatiladi. Bu voqealar qissada jonli tasvirlanadi. O'quvchi ko'z o'ngida shohning muhtasham saroyi, taxti, atrofida turgan amaldor-u a'yonlari xuddi ko'rinib turdanday bo'ladi: "Bobur Ko'histon va hind javohirlari, asl afg'on yoqutlari bilan ziynatlangan taxtdan turib, o'z mavqelariga ko'ra chizilishib joy olgan arkoni davlatga bir-bir razm soldi. Yo'g'on gavdali, siyrak mo'y Abdulvohid Firog'iyga ko'zi tushgach: – Mavlono Firog'iy, – deydi ohista, bu zot kim bo'lsa ekan? Sizning hech eshitganingiz bormi?"

Abdulvohid Firog'iy damqisma kasaliga muhtalo edi, o'rnidan qo'zg'alib, hansiragancha so'z boshladi:

– Olampanoh, sizni yo'qlaguvchi bu zot Movarounnahrning mashhur allomalaridan bo'lur. "Ko'ykiy" taxallus qilibtur, deb eshitganim bor. Toshkandda ekanimda bir kitobatini mutolaa qilib erdim. "Risola fi fann at-tafsir va-l usul va-l furu' va-l mantiq va-l kalom" deb nom bermishlar ekan, shoyon tahsinga sazovor edi. Yana bir nima tasniflari ham bor, alalxusus, ilmi tarixda benazirdur" [Sultonov 1983, 167].

Hofiz Ko'ykiyning uzoq yo'l bosib, mashaqqatlar kechirib, Hind tuprog'ida shoh saroyida Bobur bilan uchrashganidan so'ng syujet voqealarida Bobur bevosita ishtirok eta boshlaydi. Qissada Boburning holati uning vatanni sog'inib yashashini ta'kidlash bilan boshlanadi. Butun asar davomida Boburning vatan sog'inchi bilan yashab o'tganligi uning ichki kechinmalari tasviri orqali gavdalan-tiriladi.

"Saodat sohili" qissasida Boburning qalbidagi og'riqli kechin-malar ta'sirchan gavdalan-tiriladi. Bobur she'riyatni sevgani, ilm-fan qadrini chuqur his qilgani uning ichki kechinmalarida ko'rsatiladi. Vatani to'g'risidagi har bir xabar Bobur xayolida o'tmishni jonlantir-gani, yurt sog'inchi, u bilan hamroh bo'lgan, to'qnashgan kishilar siy-mosini eslatgani qissada bu tarzda ta'kidlanadi: "Abdulvohid Firog'iy yana allanarsalarni gapirar, ammo Bobur endi eshitmas – teran xayolga cho'mgan edi. "Farkat" degan so'z unga sovuq yomg'ir sav-alab turgan izg'irinli tunlarni, kuzak osmonida favqulodda chaqna-gan chaqmoqlarni eslatdi, umrining rutubatli, hazin onlarini yodiga soldi. O'sha voqealarga qancha bo'ldi ekan? Yo rabbiy, yigirma yetti yil! Qarchig'aydek bir yigit umri! O'shanda yonida hamroh-u hamkor bo'lganlardan kimlar bor? U turli-tuman nomlarni eslashga urinar-kan, ularning bari barmoq orasidan shuvillab to'kilgan qum singa-ri xotirasi qatlaridan bir-bir sirg'alib tushayotganini sezdi. No'yon ko'kaldosh, G'ulda Qosimbek, Xoldor, Mirshoh Qavchin, Qo'chbek... evoh, qayda ular? Qayerdalar? Barchasi endi «rahmatli»! Ba'zilar-ni shiddatli janglarda boshidan ayrildi, ba'zilari g'anim nayrangiga duchor bo'ldi, ayrimlarining umri qisqa ekan, ayrimlari esa... xiyo-nat qildi... Oqibat, o'sha kunlardan bu kun achchiq, mahzun xotiralar yodgor, xolos. Bobur alamli o'ylardan egilgan boshini ohista ko'tar-di. Abdulvohid Firog'iy jimgina qo'l qovushtirib turardi" [Sultonov, 1983, 168].

Xayriddin Sultonov Boburning kechinmalarini tasvirlash-da obrazli ifoda, tashbehtar qo'llaydi. Bu bilan uning shoirona qal-bini aniq ifodalaydi. Ayni o'rinda ishlatilgan "ularning bari barmoq orasidan shuvillab to'kilgan qum singari xotirasi qatlaridan bir-bir

sirg'alib tushayotganini sezdi" degan jumla Boburning xayolga botib turgan holatini aniq gavdalandiradi.

Hofiz Ko'ykiy Boburga hayotda juda ko'p narsalarni ko'rgan, kechirgan, mushohada qilgan odamlarga xos muomala qiladi. Hofiz Ko'ykiy dastlabki uchrashuv chog'idayoq Boburga: "Ona vataningizdan, ko'z ochib ko'rgan viloyatlaringizdan sizlarga ko'pdan ko'p duoi salomlar keltirdim. Ota yurtimizning tabarruk yodi muborak xotirlaridan ko'tarilmagan bo'lsa kerak..." deb aytadi. U bu tarzda gap boshlash bilan Boburning kayfiyatini, vataniga, vatandoshlariga munosabatini bilmoqchi bo'ladi.

Bobur ham alloma Hofiz Ko'ykiyning ko'nglidagi o'yini sezganday ovozi titrab: "Ul viloyatlarning latofatlarini kishi nechuk unutgay? Unutgan kishining ko'zlariga tiriklayin tuproq to'lmasmi?" deb javob beradi.

Vatanidan ayrilgan, dushmanlari tomonidan o'z diyoridan quvib chiqarilgan Boburning o'rnida bir kishi bo'lganida u alam-zadaga aylanardi va vatanini bu qadar sog'inib eslamasdi. Hofiz Ko'ykiy shuni aniqlash maqsadida ham "Ota yurtimiz"ning tabarruk yodi muborak xotiralaridan ko'tarilmagan bo'lsa kerak" deb savol beradi. Boburning vatanini sog'inib yashashini bilganidan keyin mamnun bo'lgach: "Haq so'zni aytdingiz, olampanoh. Komil inson kindik qoni to'kilmish yurtni hargiz unuta olmas. Xotiringiz jam bo'lsin, olampanoh, ul diyorlarda muborak nomingizni hanuz yod eturlar. Inchunun, sizga atalmish bir omonatni topshirmoq men-ga qismatlig' qarz edi. - U qo'ynidan nafis saxtiyon muqovali kitobni olib, Boburga avaylab uzatdi".

Alisher Navoiyning Binoqul tomonidan ixlos va mehr bilan kitob qilingan "Nasoyim ul-muhabbat" asarini qo'lga olar ekan, "Muhabbat nasimi kelgan yurtga jon sadaqa bo'lsin" deydi. Kitob nomidagi "nasim" degan bir so'zdan bunday ma'no anglashi ham Bobur- ning qalbida vatan sog'inchi g'oyat yuksak bo'lganidan dalolat beradi.

Xayriddin Sultonov Bobur xarakterini uning vatanni sog'inishi, qo'msashi orqali ochadi. Shoir va shoh Boburning qalbini uning ota-bobolari yurtini eslab azoblanishi asosida gavdalandiradi.

Hofiz Ko'ykiy Boburga Hindistonga, uning huzuriga kelish-dan maqsadi tarixga doir bir asar yodli istagi ekanini ma'lum qiladi. Bobur "umrim mobaynida qalbaki tangalardan ko'ra qalbaki allomalarni ko'proq uchratdim. Alarning haq va ma'rifat nomidan so'ylagan yolg'onlari meni muttasil g'azabga soldi" deb uni sinaydi. Hofiz Ko'ykiy shohning bunday mulohazalaridan gangib kalovlana-

di. So'ng jur'at bilan: "Shakkok qulingizni ma'zur tuting, olampanoh, biroq, taassufki, sizni ham ko'p donishparvar zot, ilm-ma'rifatning chin homiysi, deb ta'riflab edilar" deydi.

Bobur va Hofiz Ko'ykiyning ayni muloqotlari bayon etilgan sahifalarda har ikkala qahramon xarakteri qirralari ko'rsatilgan. Ayni suhbatda Hofiz Ko'ykiyning ilm-ma'rifatga chinakam ixlos bilan intilishi, bu yo'lda har qanday qiyinchilik, mashaqqatga tayyor turishi ko'rsatiladi. Boburning esa har qanday kishini donishmandlarga xos sinovdan o'tkazishi, har bir masalada obdon o'ylab ish tutishiga e'tibor qaratiladi. Bobur Hofiz Ko'ykiy bilan dastlabki uchrashuv-dayoq qanday zot ekanligini payqagan bo'lsa-da, lekin sinab ko'radi. "Bizning huzurimizga ne-ne muhtaram zotlar ganj-u davlat tilab, rutba-yu unvon tilab qadam ranjida qildilar. Lekin shu vaqtgacha kitob izlab, ma'rifat istab kelgan bir kimsani ko'rganimiz yo'q edi. Shukur tangrigakim, alhol inoyat aylab, zoriqib ko'z tutgan kishimizning diydoriga yetishtirdi. Har qandog' noyob kitobimiz bo'lsa, sizdan aylansin" deb xursandligini bildiradi.

Qissada Hofiz Ko'ykiyning butun vujudi bilan ilmga berilgani, xarakteri, fe'l-atvoriga shu intilish singib ketgani xususida qissada bunday yoziladi: "Hofiz Ko'ykiy Boburning rag'batini tufayli zo'r havas va ishtiyoq bilan ishga kirishdi. Olimning boshidan kechirmish uqubatlari shoh kutubxonasining ostonasidan ichkari hatlashi bilanoq butkul unut bo'ldi. U ko'hna qo'lyozmalarning sarg'aygan sahifalarini ko'z nuri va yurak qoni bilan munavvar etib, tarixning unutilgan, chalkash so'qmoqlari orasidan Haqiqat vodiysi sari eltuvchi chag'ir toshli yagona yo'lni izlashga tushdi" [Sultonov 1983, 188].

Ushbu asar "Saodat sohili" deb nomlangan. Ushbu so'z birikmasi orqali qissa qahramonlarining xarakteri ko'rsatiladi. Vatan madhi, yurt sog'inchi shoh hamda shoir Boburni va olim, sayyoh Hofiz Ko'ykiyni o'zaro hamfikir, hamdardga aylantirgani ta'kidlanadi. Turli kelishmovchilik, jang-u jadallarni boshidan kechirgan Bobur vatan sog'inchi bilan yurgan kezlarida Hofiz Ko'ykiydan: "Ollohning har bandasi goh hud, goh behud tushlar ko'rur. Tushda kishiga ko'p biliksiz narsalar ayon bo'lg'usidir. Shunday emasmi, mavlono? Ammo mening... Ne vaqtlarkim, men muttasil bir tush ko'rib, mazmunini anglamoqdin ojizman. Tunlar ba'zan yakkash bir yo'sin manzara namoyon bo'lur, o'sha Farkatda ko'rganim - toshqin soy hududsiz bir dengiz kabi ayqirib yotadi. Suv betini muz bosgan. Qo'limda aso, muz uzra shitob ila qaygadir yelib boraman. Har qadam qo'yganimda oyog'im ostida muz qirs-qirs ushalar, muz har qisirlaganda yuragim qalqib-qalqib ketar... Na dengizning poyoni bor, vahm ichra qora ter-

ga botib  
vaqt hay  
lardan ta  
ul kanon  
Qayda u  
moyi kiro  
topmadi  
dilarki, n  
ummonin  
nima ek  
Bobur ha  
nadi. Qis  
vatan so  
nomlash  
Ko'ykiyn  
hili vatar  
Hofiz Ko'  
gani, atro  
virlangan  
da nogoh  
g'ayrish  
payqadi-y  
ga dafn e  
faryod ch  
o'z xayoll  
eshitmad

Us

doimo va  
ko'rgan-k  
qo'ygan k

Xa

da bo'lsa  
uchun za  
gori" qiss  
bosh qah  
bosh qah  
universite  
gan yosh y  
kechirib,  
kablklari  
sertatsiya

ga botib tentib yuraman. Sahar chog'i hushim boshimdan uchib, ne vaqt hayron-u parishon o'ltiraman. So'ng arkoni davlat, munajjimlardan ta'bir so'rayman. "Olampanoh, muborak nazaringiz tushgan ul kanora, inshoolloh, saodat sohili bo'lur" deydilar. Saodat sohili! Qayda u? Qay baxtiyor kimsa unga yetibdir? Ko'p allomalardan, ulamoyi kiromlardan so'roqladim: "Qayda u?" Ko'ngil tingudek bir javob topmadim. Goh aytdilarki, u chog'ir dengizining qirg'og'ida, goh dedilarki, ma'rifat daryosining kanorasida... Goh esa uqtirdilarki, savob ummonining sarhadlarida" deb so'raydi. Dilida dardi bor, lekin uning nima ekanligini bilolmagan kishigina shunday holatga tushadi. Bobur ham o'z iztirobi sababi, dili g'ashligi boisini bilolmay azoblanadi. Qissada uning ana shu holati aniq ifodalangan. Boburning vatan sog'inchini uning tushi bilan bog'lash, uni "saodat sohili" deb nomlash yozuvchining o'ziga xos badiiy topilmasiga aylangan. Hofiz Ko'ykiyning Boburga "siz tushlaringizda intilgan manzil-saodat sohili vatanda" deyishi ham qissaning eng ta'sirchan o'rniga aylangan. Hofiz Ko'ykiydan bu javobni eshitganda Bobur qanday holatga tushgani, atrof qanday ko'rinish olgan asarda quyidagi tarzda jozibali tasvirlangan: "Bobur birdan yalt etib qaradi. Shohning sarxush ko'zlarida nogoh o'kinch ko'lankasi paydo bo'lganini ko'rib, Hofiz Ko'ykiy g'ayrushuriy tarzda uning dilidagi bitmas jarohatga tig' tortganini payqadi-yu, xijolat chekib, yerga tikildi. Ufq quyoshni o'z bag'riga dafn etdi. Bulutlarning ko'ksi qonga to'ldi. Olisdagi tog'lar unsiz faryod chekdi. Yorug' olamda bu faryodni muazzam toqi ravoqda o'z xayollariga g'arq bo'lib o'tirgan ikki kishidan bo'lak biror kimsa eshitmadi" [Sultonov, 1983, 188].

Ushbu qissada Bobur xarakterining eng muhim jihati – uning doimo vatani sog'inchi bilan iztirob chekib yashagani, o'z umrini, ko'rgan-kechirganlarini taftish qilib yurgani, ilm-ma'rifatga mehr qo'ygan kishilarga g'amxo'rlik ko'rsatgani ta'sirchan tasvirlangan.

Xayriddin Sultonovning "Saodat sohili" qissasi tarixiy mavzuda bo'lsa, "Yozning yolg'iz yodgori", "Ko'ngil ozodadur..." qissalari uchun zamonaviy hayot mavzu qilib olingan. "Yozning yolg'iz yodgori" qissasi "Adash Karvon" deb ham yuritiladi. Chunki bu qissaning bosh qahramoni – Adash Karvon. "Ko'ngil ozodadur..." qissasining bosh qahramoni esa G'ulom. Adash Karvon – keksa chol. G'ulom esa universitetni endigina tamomlab, ish boshlagan, ijarada yashab yurgan yosh yigit. Adash Karvon zamonning turli talotumlarini boshidan kechirib, azob-uqubatlar ko'rgan kishi. G'ulom bo'lsa hayot murakkabliklariga endi duch kelmoqda. G'ulom adabiyot tarixidan dissertatsiya ishi yozish bilan mashg'ul. Uning butun fikr-u xayoli

ilmiy ishi mavzusi bilan band. G'ulom Gulxaniy hayoti va ijodini o'rganishni maqsad qilgan. Shuning uchun u o'tgan zamonlarda yashagan shoir Gulxaniyning "Zarbulmasal" qahramonlari bilan sirlashadi va o'zini yengil his qiladi. Yon-veridagi ayrim kishilarning nafs ilinjida yurishi, bir-birini aldashini ko'rib hayron qoladi.

Adash Karvon va G'ulom halol yashashga intilishi, harom-harishdan hazar qilishi, har bir ishga vijdonan yondashishi, hech kimni ranjitmasligi, qo'lidan kelgancha birovga yordam berishi, kechirimlilikligi jihatidan bir-biriga o'xshaydi. Adash Karvon ham, G'ulom ham hech qachon birovni aldamaydi, nafs qutqusiga uchib maishat-parastlik qilmaydi. Yozuvchi "Yozning yolg'iz yodgori"da ham, "Ko'ngil ozodadur..." qissasida ham boshqalarga zulm qilishni o'ziga kasb qilib olgan kimsalardan ozor chekkan kishilarni asosiy qahramon sifatida ko'rsatgan. Umuman, halol, vijdonli odamlarni bosh qahramon sifatida ko'rsatish Xayriddin Sultonov qissalariga xos yetakchi xususiyat sanaladi. Chunki "Saodat sohili" qissasi bosh qahramoni Hofiz Ko'ykiy ham, Bobur ham halol, vijdonli kishilar. Ular o'zlarining har bir xatti-harakati haqida o'ylaydi, mushohada yuritadi, xatolari uchun iztirob chekadi.

"Yozning yolg'iz yodgori", "Ko'ngil ozodadur..." qissalari bosh qahramonlari Adash Karvon ham, G'ulom ham o'z boshiga tushgan turli voqealar sababini boshqalardan emas, o'zidan izlaydi. Ular nima ish qildim, qanday xatoga yo'l qo'ydim, deb iztirob chekadi. "Saodat sohili" qissasida Boburning ham shunday hollari tasvirlanadi. Xayriddin Sultonov Adash Karvon, G'ulom, Bobur, Hofiz Ko'ykiy karakterida ezgu insoniy xislatlar ustuvor ekanini ularning ichki kechinmalari orqali ochib beradi.

"Ezgulik" deganda kishilarga yaxshilik qilish orqali yaxshi nom qoldirish nazarda tutiladi. "Yozning yolg'iz yodgori" qissasi qahramoni Adash Karvon bu haqda shunday o'ylaydi: "Asli yodgorlik deganimiz nima? Bir yurakning ikkinchi bir yurakda qoldirguvchi aziz, ardoqli armoni emasmi? Har kimsa tirikligida qilgan savob ishlari bilan o'ziga o'zi xotira qo'yib ketadi. Qachondir, qaydadir imoratga qo'yilgan bir dona g'isht, qaysidir bog'da o'tqazilgan bir tup nihol, ko'ngli yarim g'aribga aytilgan bir og'iz shirin so'z, beminnat topilgan bir burda non – odamzot o'zi uchun o'zi bunyod etajak yolg'iz va asl yodgorlik mana shu" [Sultonov 1993, 272-178].

Adash Karvon – taqvodor kishi. Bolaligida diniy kitoblarni o'qib, xudojo'y buvisining ta'sirida o'sgan. Adash Karvon – boy-badavlat savdogar emas. Uning tuyalari qator tizilgan karvoni yo'q. Adash Karvon umrida tuya ham yetaklamagan. Uning bobosi Sohib

Karvon dongd  
yilqi-yu ho'ki  
Mirza Karvon  
si dongdor sa  
faqat "Karvon  
Sohib Karvon  
"Otang savlati  
yetti yasharda  
vafo qilmas el  
qimorga boy l  
un so'rab chiq  
Manglayingga  
yo'lga kirsin,  
ilm vafo qiladi

"Yozning  
umrida turli v  
yo'li hikoya qili  
hamda Nasibbo  
mojarolari bila  
markazida Ada  
chinmalari tura

"Ko'ngil  
qalbi yaxshilik  
o'xshaydi. G'ulo  
qushlar bilan su  
piching, o'tkir k  
sal" singari mu  
ti haqidagi and  
Xayriddin Sulto  
masal"dagi ma  
Gulxaniy asarid  
gani G'ulomning  
tiladi. G'ulom Gu  
virlangan voqea  
uning "Deydilar  
shu gazandalarg  
yosh umrimni b  
yashab o'tgan M  
ham endi menga  
uch xonali bo'm  
Oy oxirlarida, sh

Karvon dongdor savdogar o'tgan. O'sha kishining o'ttizta nortuyasi, yilqi-yu ho'kizining hisobi bo'lmagan. Ammo Sohib Karvon o'g'li Mirza Karvonga boyligini meros qoldirmagan. Mirza Karvonga otasi dongdor savdogar boy Sohib Karvonning hisobi yo'q boyligidan faqat "Karvon" degan laqabi-yu ikki tokcha kitobi nasib qiladi, xolos". Sohib Karvonning xotini Ulug' buvi bu haqda o'g'li Mirza Karvonga: "Otang savlatidan ot hurkadigan odam edi. "Sohib Karvon" deganda yetti yashardan yetmish yashargacha qo'l qovushtirardi. Mol-dunyo vafo qilmas ekan, shundoq odam bir kechada egnidagi to'ningacha qimorga boy berib keldi, uch oydan keyin qo'shnisidikiga bir kaft un so'rab chiqib, quruq qaytdim. O'tniki o'tga ketdi, suvniki suvga... Manglayingga farzand bitibdi, ming-ming shukur qil, bolang haq yo'lga kirsin, alhamdulillah kam bo'lmas, bu dunyoda kishiga faqat ilm vafo qiladi" deydi [Sultonov 1993, 114].

"Yozning yolg'iz yodgori" qissasida yetmish ikki yillik umrida turli voqealarni boshidan kechirgan Adash Karvon hayot yo'li hikoya qilinadi. Bu voqealar Adash Karvonning xayoli, tasavvuri hamda Nasibbek, Gulnor, Sattorning alam, iztirobga to'la muhabbat mojarolari bilan bog'liq holda tasvirlanadi. Qissa syujet voqealari markazida Adash Karvonning hayot yo'li, uning qayg'uga to'la kechinmalari turadi.

"Ko'ngil ozodadur..." qissasi qahramoni G'ulomning ham qalbi yaxshilik tuyg'usiga to'la. U bu jihatdan Adash Karvonga juda o'xshaydi. G'ulom xayolan Gulxaniy bilan, "Zarbulmasal" asaridagi qushlar bilan suhbatlashadi. Bu muloqot maqol va matallarga, kinoya, piching, o'tkir kesatiglarga boy. Qissani o'qish davomida "Zarbulmasal" singari mumtoz adabiy asarlarida bugungi kun odamlari hayoti haqidagi anchagina haqiqatlar aytilganiga ishonch hosil bo'ladi. Xayriddin Sultonov "Ko'ngil ozodadur..." qissasi matniga "Zarbulmasal"dagi maqol, rivoyat, hikoyatlarni mahorat bilan singdirgan. Gulxaniy asaridagi maqol, matallar mazmuni hozir ham o'zgarmagani G'ulomning kechinmalari, boshidan kechirganlari orqali ko'rsatiladi. G'ulom Gulxaniy zamoni, u yaratgan "Zarbulmasal" asarida tasvirlangan voqealar ichiga singib ketganday ko'rinadi. Shuning uchun uning "Deydilarki, ilon-chayonlarni o'rganayotgan odam, oxir-oqibat shu gazandalarga ham mehr qo'yib qolar ekan. Shundanmikan yoki yosh umrimni bag'ishlab o'ltirganim uchunmi, qay bir zamonlarda yashab o'tgan Muhammad Sharif Gulxaniy degan rindnafas bir odam ham endi menga otamdek aziz bo'lib qolgan, uzun, sovuq kechalarda uch xonali bo'm-bo'sh ijara uyda yolg'izlik nimadir – bilmas edim. Oy oxirlarida, shuncha paytdan buyon "og'ziga so'k solib olgan" tele-

fon tuyqusdan tilga kirib, uy bekasi Dinora opa malol keltirmaygina ijara haqini eslatganida, g'oyibga tikilganicha, po'pisa qilib qo'yar edim: "Xo'sh, mavlono Gulxaniy, beka ijara istar, oqchadan chiqarsinlar! Kecha-yu kunduz shunda hozir-u nozir bo'lsangiz, yo halimxona bunda-yu zikrxona undami?! Mavlono Gulxaniy ranjib javob qilar edilarki: "Biz qo'y ko'rmasak ham, qiy ko'rgan erduk. Qul bilan quyimoq yesang, qustirmay qo'ymas, cho'ri bilan chalpapak yesang, qaytarmay qo'ymas". So'ng tumtayib, indamay kelardilar, mening esa, u kishi G'ulom ismimga mutoyiba qilganiga darhol fahmim yeta qolmas, anglab yetgach, bisyor zavqim qo'zib kulib yuborar edim. Umuman, mening G'ulomligimu uning Muhammad Sharifligi aksariyat lutf-u zarofatlarimizning qizg'in va tunganmas payroviga aylangan edi. "Nechukkim aytmishlar, - der edilar u kishi soxta qovoq uyub, qum yig'ilib tosh bo'lmas, qul yig'ilib bosh bo'lmas". "Haqqos rost, taqsir, - der edim men, - g'ulomligim chin bo'lmasa, sizning etagingizdan tutarmidim? Yaxshilar bila yurdung-yetding murodga, yamon bila yurdung-qolding uyotg'a. Bu so'zlar o'zingiz aytgan so'zlar, tonmassiz, taqsir? Mana, kitobingizning yigirma uchinchi sahifasida zikr etilibdir" degan so'zlarni kitobxon maroqlanib o'qiydi.

"Mavlono Gulxaniy zikr etmish har bir maqol ortidan bir taqdir darichasi yaqqol ko'rinib turadi" deydi G'ulom va "Zarbulmasal"dagi maqol, rivoyatlarni o'zi ko'rgan bilgan voqealarga qiyoslaydi. Gulxaniy qahramonlarni tanigan, o'zi bilan birga ishlayotgan odamlarga qiyoslaydi. G'ulom Gulxaniyni xuddi ko'rib turgandek, u bilan suhbatlashadi. U Gulxaniy qiyofasini quyidagicha tasavvur qilishni aytadi: "Muhammad Sharif to'rda, boshini quyi egib o'ltiradi, mudom tabassum. Kinoya va mutoyiba jilva qilguvchi ozg'in. Zahir yuzlarida qayg'u ko'lankasi" [Sultonov 1993, 5].

"Ko'ngil ozodadur..." Gulxaniy she'rining misrasidan olingan parcha. G'ulomning xayolida Gulxaniy: "Ko'ngil ozodadur, ko'ngul ozodadur, dunyoga arzi ehtiyoj etmaz" deya otganday bo'ladi. Boylik, pul-molga qiziqmasligi jihatidan G'ulom Gulxaniyga o'xshaydi. Shuning uchun u Gulxaniy bilan xayolan gaplashadi. Hech kimga aytolmaydigan ichki dardlarini xayolan "Zarbulmasal" muallifiga aytadi. "Men unga dilimni o'rtab shubhalarni so'yladim. Olamning noraso ishlarini gapirdim. Ne-ne ajdodlarim aqli yetmagan savollarga undan javob so'radim: odam nedur, nechun dunyoga kelur? Kelmagidan murod nadur, ketmagidan faryod nadur? Nechun haq mudom ta'qibdadur? Razolat hanuz g'olib kelur? Ne bois to hamon suv keltirgan xordir? Bani bashar tokaygacha sabiy qolur?" deb so'radim deydi G'ulom. G'ulomning bu mulohazalari "Yozning yolg'iz yodgori"

qissasi o  
mazmu  
ketadi.  
tasvirlar  
rag'ochla  
izlab izg  
zakning  
uzra telb  
Adash K  
kun-uzur  
bir kims  
taassir s  
jimgina y  
devor or  
bir salob  
ganini o'y  
ni hisobla  
Karvon y  
kelganmi  
mon safir  
kelarkan,  
digan kun  
o'lganda k  
di va har  
gina uyiga  
qa ko'mila  
toshga ayl  
Ad  
ga beparw  
o'ylaydi, m  
lik boshqa  
sita bo'lad  
Oynisa, o'g  
kampiri ha  
iymon kelt  
o'rtanib es  
ruchchi sog  
yodgorligi  
ekani haqi  
barpo etib  
"Ko'

qissasi qahramoni Adam Karvonning hayot va o'lim, inson umrining mazmuni, insondan qoladigan yodgor to'g'risidagi o'ylariga o'xshab ketadi. Adash Karvonning qabristonga borgan holati quyidagicha tasvirlanadi: "Qabriston sukunati yutaman deydi. Yalang'och qayrag'ochlar ma'yus oh tortadi, aqalli birorta bo'lsin yashil yaproq izlab izg'igan shamol qontalash barglarni sargardon tentiratadi, kuzakning bu nursiz kunida yanada befayz ko'ringan g'arib sag'analar uzra telba saxovat bilan xazon sochadi... Mozorning so'nik manzarasi Adash Karvon dilida o'lim haq ekaniga hamisha iymon keltiruvchi, kun-uzun kun omonatini yeldeki kelib, seldek olishini iltijo qiluvchi bir kimsa dilida uyg'otgan poyonsiz g'ashlik va qo'rquvni eng mutaassir suralar ham quvib chiqara olmadi. Bag'riga ne-ne zotlarni jimgina yutib, to'yimas ko'zlarini jimgina yumgan bu qo'hna makon, devor ortidagi tiriklik talvasasiga butkul beparvo, sovuq, g'olibona bir salobat to'kib turar edi. Adash Karvon bu yerga ilk bir qachon kelganini o'ylab ketdi. Eh-he! Eslab bo'larmidi buni! Daryodagi tomchini hisoblab bo'ladimi? Osmondagi yulduzni sanab bo'ladimi?! Adash Karvon yetmish ikki yillik umri mobaynida bu makonga ozmuncha kelganmi? Ozmuncha odamni tuproqqa qo'yganmi? Har safar olomon safida, paymonasi to'lgan marhumni joyrostoniga topshirgani kelarkan, shu olomon uning o'zini ham mozorga so'nggi marta eltagan kun yaqinlashayotganini dil-dilidan anglar edi. Bu yerga otasi o'lganda keldi, onasi o'lganda keldi, qarindosh-urug'lari o'lganda keldi va har gal yuragining bir parchasini sovuq tuproqqa ko'mib, jimgina uyiga qaytdi. Oxiri bir parcha-bir parchadan uzila-uzila, tuproqqa ko'mila-ko'mila yuragi adoyi tamom bo'ldi, o'rnida qolgan narsa toshga aylandi"[Sultonov 1993, 112-113].

Adash Karvon ham, G'ulom ham tevarak-atrofidagi hodisalariga beparvo, befarq emas. Shuning uchun ular har bir narsa to'g'risida o'ylaydi, mushohada yuritadi. Ular xarakteridagi ana shu o'ziga xoslik boshqalar e'tibor qilmagan haqiqatlarni anglashiga sababchi, vosita bo'ladi. Adash Karvon qabristondagi qabrtoshlarini ko'rib, xotini Oynisa, o'g'li Nasibbekning umr yo'li haqida o'ylar ekan, o'g'li ham, kampiri ham halol yashab, iymoni salomat, diyonati pok bo'lganini iymon keltiradi. Ulardan Adash Karvon cheksiz iztirob bilan birga, o'rtanib eslagan chog'i yurak-bag'rini yorug' bir shukuhga to'ldiruvchi sog'inch yodgor bo'lib qolganini anglab yetadi. Bu sog'inch yodgorligi hashamatli marmartoshlardan ham baland, muhtasham ekani haqida o'nlab qoladi. Har bir odam o'zi uchun o'zi yodgorlik barpo etib yashashi haqida mushohada yuritadi.

"Ko'ngil ozodadur..." qissasi qahramoni G'ulom Shodiyor

bilan ijarada hamxona bo'lib yashashdi. G'ulom va Shodiyor bir-birining tamoman teskarisi. G'ulom xuddi "Saodat sohili"dagi Hofiz ko'ykiy, "Yozning yolg'iz yodgori"dagi Adash Karvon singari halol, iymon-e'tiqodli yigit. Shodiyor esa maishatga berilgan. U huquqshunoslik institutida o'qiydi. Ammo darsga bormaydi. O'ziga o'xshagan boyvachcha og'aynilari bilan maishat, kayf-u safo qilib kunlarini o'tkazadi. "Aytishicha, u yuridik institutda o'qishga qiziqmaydi. Bu yerga o'qishga otasi majburlab kiritib qo'ygan. Shodiyorning o'ziga qolsa, u futbolchi, yo artist bo'lmoqchi ekan. "Menga kalla ishlatmaydigan o'qish bo'lsa" deydi u. Shodiyor dunyoda ikkita narsani: rok musiqasi va mashina haydashni yaxshi ko'radi. Otasi u maktabni tugatganida "Jiguli" mashinasi olib bergan. Shodiyor harom-harish ishlarga qo'l urishdan aslo tortinmaydi. U imtihonlarni topishirish uchun ham pul beradi va bu ishini oddiy, tabiiy hodisa deb biladi. "Nima harom-harish? Hamma qatori, ko'pchilik nima bo'lsa, biz ham shu. Umr bir marta beriladi, o'ynab-kulgan qoladi, boshqasi – bir tiyin" deydi Shodiyor [Sultonov 1993, 45]. Chunki maishatni hamma narsadan ustun deb biladigan, harom-harish yo'llar bilan pul topishga ruju qo'yganlar davrasida ulg'aygan. Shodiyor nasha chekadi. Uning otasi, tog'asi ham Shodiyorga o'xshaydi. G'ulom oq ko'ngil, rahmdil, birovlarga yaxshilik qilishni burchi deb bilgani uchun Shodiyorni yomon yo'ldan qaytarmoqchi bo'ladi. Ammo G'ulom pul, maishat quturtirgan Shodiyorni tarbiya qilolmaydi. Nasha chekib, o'zini boshqarolmay qolgan Shodiyor aldangan bir qizni qutqarmoqchi bo'lgan G'ulomni pichoqlab o'ldiradi.

"Yozning yolg'iz yodgori" qissasida ham o'z istak-xohishini o'ylagan Sattorning qotillikka qo'l urishi, u alam, hasad olovida yonganidan Adash Karvonning yolg'iz o'g'li Nasibbekni otgani bayon etiladi. "Ko'ngil ozodadur..." qissasida Shodiyorning qilmishidan keyingi holati bayon etilmaydi. "Yozning yolg'iz yodgori" qissasida Sattorning iztiroblari ochib beriladi. Sattor turmadan Gulnorga "Iltimos, qarg'ab-la'natlab bo'lsa-da, meni ahyon-ahyonda yod etib tursang. Zora, men shunda diyodoringni yana tushlarimda ko'ra olsam" deb xatlar yozadi. Lekin bu xatlarini yubormaydi. "Qaysi yuz bilan yuboraman, Gulnor?! Axir, endi senga loaqal xat yozishga ham haqqim yo'q-ku!" deb iztirob chekadi. Yozgan xatlarini yirtib tashlaydi. Ammo Sattorni xotiralari doim azoblaydi. Qissada Sattorning iztiroblari quyidagicha tasvirlanadi: "Shu lahzaning o'zida juda ko'p narsani birdaniga tushundi – o'tgan umrni qaytarib bo'lmasligini, qachonlardir jaholat tufaylimi, hasad tufaylimi, muhabbat tufaylimi, sodir etilgan mash'um xatoni ham tuzatib bo'lmasligini, qanchalar

og'ir, mashaqqatli bo'lmasin, endi boshqacha yashashi kerakligini, bundan bo'lak iloji yo'qligini..." [Sultonov 1993, 181].

Sattor xatolarini anglamasdan avvalroq Adash Karvon ham, uning xotini Oynisa ham o'g'lining qotili-Sattorning gunohini kechadi. Adash Karvonning xotini Oynisa vafot etayotgan chog'ida eriga: "Rahmonberdining o'g'lini kechirdim, siz ham kechiring" deb vasiyat qiladi. Adash Karvon o'g'lining qotili Sattorni allaqachon kechirgan bo'ladi. Hatto sudda ham unga hech qanday da'vo-janjal yo'q ekanini ochiq-oydin aytgan bo'ladi. Qissada Adash Karvonning Sattorga bu munosabat quyidagicha tasvirlanadi: "Lekin shunday degani bilan, tirik jon, shu kungacha ko'ngilda unga cheksiz-chegarasiz adovat pinhon ekan. Taajjubki, faqat shu bugun, boya qabris-tonda, sovuq sag'analarga tikilib o'tirganda ana shu kek va qudrat alangaga go'yo allakim suv sepgandek, jazillab achishgan jarohatlariga muzday malham qo'ygandek bo'ldi. Ha, nek bo'lgan bo'lsa - bari o'tdi! Endi qanday bo'lmasin, Sattorni ko'rmog'i, kampirning so'nggi tilagini ado etmog'i kerak. Toki bir bandam bechora umr bo'yi o'rtanib o'tmasin! Buni shu paytgacha jur'ati yetmasdanmi, ko'ngilning isyonini bosolmaymi, aytmagan ekan, endi aytishi ham qarz, ham farz. Mayli. Axir rasululloh aytmishlarkim: "Ertaga qiyomat degan kun ham daraxt ekingizlar" [Sultonov 1993, 179-184].

Adash Karvon taqvodor, xudojo'y kishi bo'lgani bois boshiga neki mushkul tushsa, taqdirning hukmi, unga ko'nish, ko'nikish, itoat qilish kerak, deb yashaydi. Shuning uchun u begunoh o'g'lining qotilini kechirishni istaydi. Adash Karvon Sattorni "sho'rpeshona" deb biladi. Ammo Adash Karvon ham qismati chigalliklarini o'ylab, ojiz qolgan paytlarda, savollariga javob topolmay qolib: "E poki parvardigoro! Nega meni buncha sho'rpeshona yaratding? Axir, men sobir edim-ku! Axir umr bo'yi buyrug'ingga bo'yin egib o'tdim-ku! Tan-u jonimni bor-u yo'g'imni yo'lingga bag'ishladim-ku! Balo-yu ofatlarga duch kelgan paytlarimda ham, qorong'u yo'llarda qoqilgan paytlarimda ham nomingni dilimdan qo'ymadim, hech qachon shikva-shikoyat qilmadim, boshimga neki ko'rgilik tushsa, sening irodang deb bildim, hamisha o'zingga shukrona aytdim. Lekin endi sendan so'rayman, muborak dargohingga bosh urib yolborib so'rayman, ayt, anglat menga: manglayi qora bu bandangning gunohi ne edi? Nega men ham odamlarga o'xshab bir ro'shnolik kun ko'rmadim? Nega menga faqat sitamni ravo ko'rding? Yozug'im ne edi, vallohu olam?!" deb ich-ichidan eziladi [Sultonov, 1993, 184].

Adash Karvonning bu savollarida hech kimga hasad, g'azab, nafrat yo'q. Uning ko'nglidan kechayotgan Xudoga qilayotgan mu-

rojaatlari, iltijolarida o'z hayotidagi murakkabliklar, qismatidagi chalkashlar sababini bilishi istagini turadi. Bunday xohish, istak har bir kishining ko'nglida turadi. Xayoriddin Sulstonov Adash karvon xarakterida o'z hayot yo'lini taftini qilib, avval anglamagan haqiqatlarini bilib olayotgan odam obrazini ko'rsatgan. Qabristondagi sag'analar, unda do'ppayib turgan qabrlar, ulardagi turli marmartosh qabrtoshlari Adam Karvonning o'z hayoti haqida avval xayoliga kelmagan juda ko'p sir-sinoatlar haqida o'ylashi, mushohada yuritishiga sabab bo'ladi.

"Ko'ngil ozodadur..." qissasida esa Gulxaniyning xayoliy siy mosi, u yaratgan "Zarbulmasal"dagi qiyomat, rivoyat, masal, maqollar G'ulomning o'zi yashab turgan muhit haqida o'ylashi, mushohada yuritishi uchun vosita vazifasini bajaradi. G'ulomning xarakterini yozuvchi uning Gulxaniy bilan xayoliy savol-javob hamda Shodiyor, rahbar ishxonasidagi boshlig'i-rahbar, dissertatsiya ishi ilmiy rahbari, ijaradagi xonadoshi Shodiyorga munosabati orqali ochib beradi.

Xayriddin Sulstonovning "Saodat sohili", "Yozning yolg'iz yodgori", "Ko'ngil ozodadur..." qissalarida halollik ulug'lanadi. Bu qissalarning bosh qahramonlari - iymon-e'tiqodli, vijdonli pok kishilar. Hofiz Ko'ykiy, Adash Karvon, G'ulom doimo halol mehnat bilan kun kechiradi, birovlarining haqiga zarracha xiyonat qilmaydi. Ular hech kimni aldamaydi, boshqalarga ozor yetkazmaydi. Xayriddin Sulstonov Hofiz Kuykiy, Adash Karvon, G'ulomning ko'ngil kechinmalarini, ularning nohaqlikdan iztirob chekishi, adolat toptalgan paytda beparvo emasligini ishonarli ko'rsatadi. O'quvchi ushbu qissalarning bosh qahramonlar xarakterida yaxshi kishilarning fe'l-atvori, kechinmalari mujassam ekanini darhol payqaydi. Yozuvchi asarlariga xos ushbu xususiyat to'g'risida adabiyotshunos Ibrohim G'afurov shunday deydi: "Xayriddin Sulstonov oddiy odamlarning yuraklaridagi ma'naviy boyliklarini, insonni insoniylik darajasida mo'tabar qilib turadigan xislatlarni ochishga alohida diqqat qiladi. Odamning yuragida ma'naviyat gavhari bor. Xayriddin Sulstonov o'z asarlarida shu gavharga ziyo tushganlar yoki yana ham, aniqrog'i, inson dili nur taratadigan damlarni tasvirlashni o'z oldiga maqsad qilib qo'yadi" [Sulstonov 1988, 272].

Xayriddin Sulstonov qahramonlari qalbi nurlangan lahzalarini ta'sirchan lavhalarda tasvirlaydi. Qahramonlari xarakteridagi muhim jihatlarni ularning ezgulikka intilishi, raqiblari, dushmanlari holatini tushunishi, ularga achinishi orqali gavdalantiradi. Hofiz Ko'ykiy u bilan safarga chiqqan Binoqulning yo'lda halok bo'lganini

eslab eziladi. Adash Karvon o'g'lining qotili Sattorni sho'rpushona hisoblaydi, sudda ham unga hech qanday da'vo-janjali yo'qligini ochiq-oydin aytadi. "Ko'ngil ozodadur..." qissasi qahramoni G'ulom ham maishatparast Shodiyorni to'g'ri solishga harakat qiladi. "Bir qarasang, ko'ngli ochiq, tanti yigitga o'xshaydi, bir qarasang, dordan qochgan kazzobning o'zi" deydi u haqda.

Xayriddin Sultonov qissalari asosiy qahramonlari xarakterida halollik asosiy xislat sifatida bo'rtib turadi. Ammo ularning halolligi kimlar bilandir keskin to'qnashuvlarda, murosasiz olishuvlarda emas, balki ularning ichki iztiroblari ko'rinadi. Yozuvchi qahramonlari muammolarga duch kelganida aybni boshqalardan emas, avvalo, o'zlaridan izlashadi. Bu ularning qalbidagi ziddiyatli kechinmalar tahlili orqali ko'rsatiladi. Xayriddin Sultonov asarlaridagi qahramonlar qalb kechinmalari tahlili o'quvchi e'tiborini jalb etadi. Yozuvchi qahramonlari ruhiyatini ko'rsatishni asosiy maqsadi deb biladi. Xayriddin Sultonov "Meni inson ruhiyatining cheksiz g'alayonlari qiziqtiradi" deydi [Sultonov 2005, 5, 3].

"Saodat sohili" qissasida yozuvchi Zahiriddin Muhammad Boburning ruhiyatidagi cheksiz g'alayonlari ta'sirchan tasvirlaydi. Bobur ulkan saltanat hukmdori bo'lishiga qaramay, doim ko'ngli bezovta yashaganligini ishonarli ko'rsatadi. Shoh va shoir Bobur ham xuddi Adash Karvon singari o'tgan umrini, u bilan duch kelgan, og'ir jang-u jadallarda yonida turgan odamlarni bir-bir xayolidan o'tkazadi. O'zini ulkan dengizga tushib qolib, sohil tomon talpinayotgan holda sezadi. "Menga najot beradigan saodat sohili qayerda" deb iztirob chekadi. Xayriddin Sultonov qissalarida qahramonlarining iztirob chekayotgan holatini ko'rsatadi. Adash karvon taqdirning chigalliklari, qismatining chalkashliklari haqida o'ylaydi. G'ulom esa halol, vijdonli kishilar qiynalib yashashi, Shodiyor singari puldor, maishatparastlar halol, iymon-e'tiqodli kishilarni tahqirlashi, harom-xarishdan, boshqalarni toptashdan rohatlanadigan to'g'ri yo'lga boshlashning qiyinligi haqida mushohada yuritib qiynaladi.

### **Xulosa**

Xayriddin Sultonov hikoya va qissalarida qahramonlarning qalb kechinmalari tahlili asosiy o'rin tutadi. Yozuvchining qahramonlar xarakterini namoyish etadigan ruhiy tahlillarida Abdulla Qodiriy romanlariga xos ohangdoshlik seziladi. Xayriddin Sultonovning Abdulla Qodiriy asarlarining bu jihatidan ta'sirlangani uning: "Ruhiy tahlil bobida Qodiriy o'ziga xos maktab va an'ana yaratgan san'atkor ekanligi ko'pdan e'tirof etilgani haqiqat. Uning

tahlili negizida insonga hamdardlik, shavqat, joziba tuyg'ulari mujassam. Uslubdagi bu jozibadorlik bois Qodiriy tasviri hamisha qavat-qavat ma'no kasb etadi, kitobxonni turfa xil o'ylarga toldiradi" degan so'zlarida ham bilsa bo'ladi [Sultonov 1993, 263].

Xayriddin Sultonov qissalarida tuyg'ulari go'zal, o'z o'tmishi, kechmishi, tevarak-atrofidagi hodisalar haqida mushohada yuritadigan ta'sirchan qahramonlar xarakteri ko'rsatiladi.

### Adabiyotlar

- XX asr ўzbek adabiyeti tarixi. 1999. Universitetlar va pedagogika institutlari bakalavr ixtisosligini oluvchilar uchun darслиk. N.Каримов, С.Мамажонов, Б.Назаров ва бошқалар. 2019. Тошкент: Ўқитувчи.
- Султонов Х. 2019. Ҳақиқат жамоли. Адабий ва публицистик мақолалар. Тошкент: MASHHUR-PRESS.
- Султонов Х. Уч юз олтиш тўрт кун. 2019. Тошкент: "O'zbekiston" НМИУ.
- Султонов Х. 1988. Умр эса ўтаверади: Ҳикоялар. Тошкент: Ёш гвардия.
- Султонов Х. 1983. Саодат соҳили. Тошкент: Адабиёт ва санъат.
- Султонов Х. 2021. Навоий – 30. Тошкент: MASHHUR-PRESS.
- Султонов Х. 1980. Қуёш барчага баробар. Тошкент: Адабиёт ва санъат.
- Султонов Х. 1993. Бобурнинг тушлари: Қиссалар. Ҳикоялар, Эсселар. Тошкент: Адабиёт ва санъат.
- Султонов Х. 1997. Бобурийнома: Маърифий роман. Тошкент: Шарқ.
- Султонов Х. 1983. Бир оқшом эртаги. Тошкент: Адабиёт ва санъат.
- "Ўзбекистон адабиёти ва санъати" газетаси, 2006 йил 20 январь.
- "Ёшлик" журнали, 2005 йил 5-сон. – В. 3.
- Жабборов, Н. (2021). История текста и некоторые комментарии к его генезису. in *Library*, 21(2), 632–636. извлечено от <https://inlibrary.uz/index.php/archive/article/view/17713>
- Rasulova, U. Y. (2021). The pride of the nation. *ACADEMICIA: An International Multidisciplinary Research Journal*, 11(3), 1685-1688.
- Rasulova, U. (2020). Novelities in poetics of tales. *ISJ Theoretical & Applied Science*, 01 (81), 220-224.
- Rasulova, U. (2021). Devotees of knowledge. *Asian Journal of Multidimensional Research*, 10(10), 1270-1274.
- Rasulova, U. (2020, December). THE EXPRESSION OF DIVINE LOVE IN CURRENT STORIES. In Конференции.
- Ulug'ov, A. (2021). HAMZAS DRAMAS. *Theoretical & Applied Science*, (8), 201-209.
- Ulug'ov, A. (2021, March). MAHMUDHOJA BEHBUDI IS A FIGURE OF HISTORY. In Конференции.
- Abdulla, U. O. (2021). GREAT TEXTBOOK OR THE CREATION OF A SCHOLARLY LITERARY CRITIC. *Conferencea*, 83-94.
- Ulug'ov, A. (2021). Stories of khayriddin sultanov. *Asian Journal of Research in Social Sciences and Humanities*, 11(12), 295-305.

In t  
of modern  
reflected in  
ty of life, th  
are impress  
perspective

In t  
dish", "Qog'  
yodgori", "K  
to the truthf  
short storie  
a person. Th  
events in lif  
and worries

Key  
modern life,  
plot, charact

XX asr o'zb  
i  
P  
T

Sultonov X.

Sultonov X. 2

Sultonov X. 1

Sultonov X. 1

Sultonov X. 2

<sup>1</sup>Ulug'ov Abdul  
University of U  
E-mail: aulug  
ORCID ID: 000  
For citation: U  
events". Uzbeki

## In the works of Khayriddin Sultan reflection of life events

Abdulla Ulug'ov<sup>1</sup>

### Abstract

In this article, Khayriddin Sultanov, one of the major figures of modern Uzbek literature, discusses how life events are artistically reflected in his stories and short stories. In the writer's works, the reality of life, the historical truth, the complex inner experiences of a person are impressively reflected artistically, and the reality is viewed from the perspective of high humanity.

In the writer's stories such as "Dunyoning siri", "Ghulomgardish", "Qog'oz gullar" and the short stories "Saodat sohili", "Yozning yolg'iz yodgori", "Ko'ngil Ozodadur...", people's daily life, worries, attention is paid to the truthful coverage of their aspirations and relationships. The author's short stories focus on convincingly revealing the spiritual experiences of a person. The events recorded in the writer's short stories are similar to events in life. The characters in them look like real people. The thoughts and worries of these heroes will not leave anyone indifferent. The article mentions such features of the writer's work.

**Key words:** *Khairiddin Sultanov, Babur, story, historical theme, modern life, image of a historical person, realistic image, lyrical expression, plot, character, inner experience, impressive solution.*

### References

- XX asr o'zbek adabiyoti tarixi. 1999. Universitetlar va pedagogika institutlari bakalavr ixtisosini oluvchilar uchun darslik. N.Karimov, S.Mamajonov, B.Nazarov va boshqalar. 2019. Toshkent: O'qituvchi.
- Sultonov X. 2019. Haqiqat jamoli. Adabiy va publitsistik maqolalar. Toshkent: MASHHUR-PRESS.
- Sultonov X. 2019. Uch yuz oltmish to'rt kun. Toshkent: "O'zbekiston" NMIU.
- Sultonov X. 1988. Umr esa o'taveradi: Hikoyalar. Toshkent: Yosh gvardiya.
- Sultonov X. 1983. Saodat sohili. Toshkent: Adabiyot va san'at.
- Sultonov X. 2021. Navoiy – 30. Toshkent: MASHHUR-PRESS.

<sup>1</sup>Ulug'ov Abdulla – Candidate of philological sciences, professor, Tashkent State University of Uzbek Language and Literature named after Alisher Navoi.

E-mail: aulugov@navoiy-uni.uz; ulugovabdulla05121960@gmail.com

ORCID ID: 0000-0002-7013-400X

For citation: Ulug'ov, A. 2023. "In the works of Khayriddin Sultan reflection of life events". *Uzbekistan: Language and Culture. Literature* 2(2): 4-24.

- Sultonov, X. 1980. Quyosh barchaga barobar. Toshkent: Adabiyot va san'at nashriyoti.
- Sultonov, X. 1993. Boburning tushlari: Qissalar. Hikoyalar, Esselar. Toshkent: Adabiyot va san'at nashriyoti.
- Sultonov, X. 1997. Boburiynoma: Ma'rifiy roman. Toshkent: Sharq.
- Sultonov, X. 1983. Bir oqshom ertagi. Toshkent: Adabiyot va san'at nashriyoti.
- "O'zbekiston adabiyoti va san'ati" gazetasi, 2006-yil 20-yanvar. Toshkent.
- "Yoshlik" jurnali, 2005-yil 5-son. – B. 3. Toshkent.
- Жабборов, Н. (2021). История текста и некоторые комментарии к его генезису. in *Library*, 21(2), 632–636. извлечено от <https://inlibrary.uz/index.php/archive/article/view/17713>
- Rasulova, U. Y. (2021). The pride of the nation. *ACADEMICIA: An International Multidisciplinary Research Journal*, 11(3), 1685-1688.
- Rasulova, U. (2020). Novelty in poetics of tales. *ISJ Theoretical & Applied Science*, 01 (81), 220-224.
- Rasulova, U. (2021). Devotees of knowledge. *Asian Journal of Multidimensional Research*, 10(10), 1270-1274.
- Rasulova, U. (2020, December). THE EXPRESSION OF DIVINE LOVE IN CURRENT STORIES. In *Конференции*.
- Ulug'ov, A. (2021). HAMZAS DRAMAS. *Theoretical & Applied Science*, (8), 201-209.
- Ulug'ov, A. (2021, March). MAHMUDHOJA BEHBUDI IS A FIGURE OF HISTORY. In *Конференции*.
- Abdulla, U. O. (2021). GREAT TEXTBOOK OR THE CREATION OF A SCHOLARLY LITERARY CRITIC. *Conferencea*, 83-94.
- Ulug'ov, A. (2021). Stories of khayriddin sultanov. *Asian Journal of Research in Social Sciences and Humanities*, 11(12), 295-305.